

**TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI**



YOSH OLIMLAR VA TADQIQOTCHILAR MAK TABI


MAVZU: Zamonaviy o'quv va uslubiy qo'llanmalarning didaktik
talablari hamda ularning pedagoglar kasbiy mahoratini oshirishdagi
tutgan o'rni va samaradorligini baholash mezonlari

MUALLIF: Xasanova Sevara G'iyosiddinovna

TOSHKENT – 2025

Reja

-
1. O'quv-uslubiy qo'llanmalarning mohiyati, turlari va ta'limdagi roli
 2. Didaktik talablar: nazariy asoslari va amaliy yondashuvlar
 3. Pedagoglar kasbiy mahoratini oshirishda qo'llanmalarning roli
 4. O'quv-uslubiy qo'llanmalar samaradorligini baholash mezonlari



O'quv-uslubiy qo'llanmalar: mohiyati, turlari va ta'limdagi roli



O'quv-uslubiy qo'llanmalar (O'UQ) ta'lim jarayonining ajralmas metodik vositalaridan bo'lib, ular o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ular dars jarayonini rejalashtirish, o'tkazish, nazorat qilish hamda tahlil etish uchun o'qituvchiga metodik yordam beradi.

Asosiy turlari



Darsliklar va
mashq daftarlar
to'plami

Laboratoriya
ishlari bo'yicha
yo'riqnomalar

Trening va
seminarlar
uchun
materiallar


Pedagogik
texnologiyalar
bo'yicha
qo'llanmalar

Multimedia,
raqamli va
onlayn
qo'llanmalar

Ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni


O'quv jarayonini
tizimlashtiradi

Yagona metodik
yondashuvni ta'minlaydi



Didaktik talablar: nazariy asoslari va amaliy yondashuvlar

O'quv mazmuni mantiqiy ketma-ketlikda, bosqichma-bosqich ifodalangan bo'lishi, o'quv dasturi bilan bog'liq bo'lishi lozim.



Qo'llanma ilmiy yondashuvga asoslangan, aniq tushunchalar va zamonaviy pedagogik qarashlarni aks ettirgan bo'lishi zarur.

Turli o'quvchilar qobiliyatini hisobga olgan, individual yondashuvlarni qo'llab-quvvatlaydigan bo'lishi zarur.


O'qituvchi va o'quvchilar uchun o'z-o'zini tahlil qilish imkonini beradigan savollar va baholovchi vositalar mavjudligi.

Bilimlarni qo'llashga yo'naltirilgan topshiriqlar, loyihalar, muammoli vazifalar mavjud bo'lishi kerak.

Pedagoglar kasbiy mahoratini oshirishda qo'llanmalarning roli

O'qituvchining kasbiy mahorati – bu nafaqat bilimi, balki o'z faoliyatini rejalashtirish, tahlil qilish, moslashuvchan pedagogik yondashuvlarni qo'llay olish qobiliyatidir.

(Sh.M.Mirziyoyev, 2020)



Zamonaviy metodik qo'llanmalar quyidagilarga xizmat qiladi:

Kasbiy refleksiya va o'z-o'zini rivojlantirishga undaydi

Innovatsion dars uslublarini amaliyotga joriy etishga yordam beradi

Fanlararo integratsiyani ta'minlaydi

Raqamli savodxonlik va pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga ko'maklashadi

Zamonaviy qo'llanmalar pedagogning kompetensiyalarini quyidagi yo'nalishlarda kuchaytiradi

Kompetensiya turi	Qo'llanma orqali rivojlanish
 Didaktik	Dars mazmunini tanlash va tuzish
 Kommunikativ	O'quvchi bilan muloqot strategiyasi
 Texnologik	Raqamli resurslardan foydalanish
 Refleksiya	Faoliyatni tahlil qilish va takomillashtirish

O'quv-uslubiy qo'llanmalarning samaradorligini baholash mezonlari

Nº	Mezon nomi	Tavsifi
1	Ilmiylik va asoslanganlik	Qo'llanmadagi materiallar ilmiy manbalarga tayangan, ishonchli faktlar va nazariyalarga asoslangan bo'lishi kerak.
2	Didaktik aniqlik	Mazmun tushunarli, mantiqan izchil va bosqichma-bosqich bayon qilingan bo'lishi.
3	Amaliy yo'naltirilganlik	Qo'llanmada nazariy materiallar bilan birga amaliy mashg'ulotlar, testlar, savol-javoblar bo'lishi.
4	Innovatsionlik	Zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar, raqamli resurslar bilan integratsiyalashgan bo'lishi.
5	O'quvchilarning yosh va tayyorgarlik darajasiga mosligi	Qo'llanma o'quvchilarning yoshiga, bilimi va ehtiyojlariga moslab tuzilgan bo'lishi.
6	O'zaro fanlar integratsiyasi	Qo'llanmada turli fanlar o'rtasidagi bog'liqliklar, integratsiyalashgan yondashuv mavjudligi.
7	Didaktik vositalarning xilma-xilligi	Jadval, diagramma, grafik, sxema, infografika va boshqa ko'rgazmali materiallar mavjudligi.
8	Baholash tizimi mavjudligi	O'quvchi bilimini tekshirish uchun oraliq va yakuniy test, savol-javob yoki boshqa baholash vositalari bo'lishi.
9	O'z-o'zini o'rganishga yo'naltirilganlik	Mustaqil o'qish uchun yo'nalishlar, qo'shimcha resurslarga havolalar keltirilgan bo'lishi.
10	Ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilganlik	Qo'llanmada analitik fikrlash, muammoli vazifalar, ijodiy topshiriqlar bo'lishi.

Tavsiya etiladigan o'quv faoliyatlar



1. Nazariy tahlil topshirig'i

2–3 ta o'quv-uslubiy qo'llanmani tanlang (boshlang'ich, umumiyl o'rta yoki kasbhunar ta'limiga oid).

Har bir qo'llanmani quyidagi mezonlar asosida tahlil qiling:

- Maqsadga yo'naltirilganlik
- Ilmiylik
- Interfaollik
- Mustaqil ishlash imkoniyati
- Baholash vositalari mavjudligi

Natijani jadvalda aks ettiring va qaysi qo'llanma talabga eng mos kelishini aniqlang.

2. Didaktik ekspertiza mashqi



- Berilgan metodik qo'llanmada kamida 3 ta didaktik kamchilikni aniqlang.
- Har bir kamchilikka muqobil yechim taklif qiling (masalan, mashq qo'shish, grafikani o'zgartirish, yangi baholash vositasi kiritish).

Tahlil natijasi asosida «Yaxshilangan qo'llanma» konsepsiyasini qisqacha yozing.

3. Pedagogik refleksiya savollari



- Qo'llanmaning qaysi elementi sizga kasbiy faoliyatningizda eng ko'p foyda berdi?
- Qo'llanmada zamonaviy metodik yondashuvlar qanday aks etgan?
- Agar siz shu qo'llanmani qayta tuzsangiz, nimani o'zgartirgan bo'lardingiz?

Javoblariningiz asosida 200 so'zli reflektiv esse yozing.

4. Samaradorlikni baholash amaliyoti

Quyidagi mezonlar asosida 1 ta zamonaviy metodik qo'llanmani 10 ballik tizimda baholang:




Mezon	Tavsifi	Ball (0-10)
Mazmuniy moslik	Dasturga muvofiqlik	
Ilmiylik	Nazariy asoslanganlik	
Didaktik samaradorlik	O'rgatuvchanlik, mustaqillik	
Texnik dizayn	Vizual estetikasi, qulaylik	
Interaktivlik	Multimedia, interfaol topshiriqlar	
Umumiy foydalilik	Real pedagogik vazifalarga moslik	
Jami		

Ballar asosida qo'llanmaning umumiy samaradorlik darajasini aniqlang va qisqacha izoh yozing.

Xulosa



Zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar pedagogik faoliyatda ilmiy yondashuvni, metodik innovatsiyani va sifatli ta'limni ta'minlovchi muhim vosita sifatida qaralishi lozim. Ilmiy izlanuvchilar uchun bu qo'llanmalar nafaqat o'qitish amaliyotida, balki ilmiytadqiqot ishlarini olib borishda ham asosiy tayanch vosita bo'lib xizmat qiladi.



**E'tiboringiz uchun
rahmat!**